Hatto dialog ham yozma nutq vositasida kechishi mumkinligini bilamiz (masalan, diplomatik notalar almashinuvi, xufiyona yozishmalar, siyosiy va ilmiy mazmundagi ma'ruzalar avval yozma tayyorlanib, keyin o'qib beriladi). Ko'pchilik "ilmiy matn" va "ilmiy diskurs" tushunchalarini bir xil ma'noda anglaydilar. Bizning keyingi tadqiqotimizning maqsadi ushbu diskurs turini har tomonlama ko'p o'lchamli tahlil qilish va uning subklassifikatsiyasini ishlab chiqishdir. Birinchi tahlil natijalariga ko'ra, biz funksional tipologiyani taklif qilamiz, unda biznes diskursining bir qator turli xil podturlari ajratiladi (ular, ko'pincha, o'tish davrini boshdan kechiradi va boshqa diskurs sohalari bilan o'zaro bog'lanadi). Tadqiqodchilar biznes diskursining turli xil podturlarini aniqlashga va ularni har tomonlama tahlil qilishga harakat qilmoqda. Bu yondashuv, diskursning faqat bir turini emas, balki uni o'z ichiga olgan bir qancha amaliy va ijtimoiy kontekstlarda qanday funksiyalarni bajarishini ko'rsatadi. Har bir podturlar o'ziga xos funksiyalarni bajaradi, va bu farqlash biznes lingvistikasi uchun juda muhim, chunki ular til va muloqotning turli shakllarini yanada chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Мамажонов, М. (2020). Антропонимлар дискурс релеванти сифатида. Фарғона.

(2). Кибрик А.А. (2008). Язык средств массовой информации как объект междисциплинарного исследования. М., 11.7

(3). Nikolaeva, T.M. (1978). Kratkiy slovar terminov lingvistiki. M., "Progress".

(4). Karasik, V.I. (2004). Jazykovoj krug: Ličnost', koncepty, diskurs. Gnozis, 117.

(5). Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. Тошкент, "Ўқитувчи", 1992; Иброҳимов С. Ўзбек тили нутқ маданиятига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти". 1964, 5-сон; Бегматов Э. Ўзбек нутқ маданияти масалалари. "Ўзбек тили ва адабиёти". 1980, 4-бет; Хўжаева Л. Нотиқлик санъати. Тошкент, 1967; Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. Тошкент, "Фан", 1972; Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқи. Тошкент, "Фан", 1979; Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. Тошкент, "Ўқитувчи", 1982; Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. Самарқанд, 1985.

(6). Арутюнова Н.Д. (1990). Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. М., "Советская энциклопедия", с. 136.

(7). Deykk, T.A. van. (1998). Ideology: A multidisciplinary approach. Sage Publications.

(8). Сосновская А.М. Деловая коммуникация и переговоры. Учеб. пособие, СПб., изд-во СЗАГС, 2011. 8 с.; ил, с. 92 – 117

(9). Xolisova G. Murhanova M. Nutqning o'zaro ta'siri jarayonidagi analik va diskursiv xususiyatlari. Pedogog jurnali. Vol 6, № 12 (2023).

(10). Xolisova G Diskurs va diskursiv tahlil bo'yicha lingvistk yondashuvlar. Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024.

Nabieva Zarrina Isomiddinovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti "Ingliz filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi)

IJTIMOIY MUNOSABAT FE'LLARINING ASPEKTUAL VA KATEGORIAL BELGILARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi fe'llarning aspektual va kategorial belgilarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Asosan, harakatning davomiyligi, boshlanganligi yoki tugallanganligini bildiruvchi aspektual ko'rsatkichlar hamda fe'lning zamon, mayl, shaxs, son kabi grammatik kategoriyalar doirasidagi holatlari ko'rib chiqilgan. Ijtimoiy munosabat fe'llari semantik jihatdan chuqur ijtimoiy-psixologik mazmunga ega bo'lib, ularning grammatik ifodalanish shakllari o'zbek tilining morfologik tizimida muhim o'rin tutadi. Maqolada ushbu fe'llarning morfologik va semantik tahlili orqali ularning tilshunoslikdagi ahamiyati yoritilgan va amaliy tahlillar asosida xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *aspektual, kategorial, geterogen, polipropotiv, kognitiv xususiyat, model.*

Набиева Заррина Исомиддиновна (Самаркандский государственный институт иностранных языков, преподаватель кафедры английской филологии)

АСПЕКТУАЛЬНЫЕ И КАТЕГОРИАЛЬНЫЕ ПРИЗНАКИ ГЛАГОЛОВ СОЦИАЛЬНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ

Аннотация. *В данной статье проанализированы особенности аспектуальных и категориальных признаков глаголов, выражающих социальные отношения. Основное внимание уделяется аспектуальным показателям, отражающим длительность, начало или завершённость действия, а также грамматическим категориям глагола, таким как время, наклонение, лицо и число. Глаголы, выражающие социальные отношения, обладают глубокой социально-психологической семантикой и занимают важное место в морфологической системе узбекского языка. В статье на ос-*

нове морфологического и семантического анализа этих глаголов раскрывается их значение в лингвистике, а также приводятся выводы, основанные на практическом исследовании.

Ключевые слова: *аспектуальный, категориальный, гетерогенный, полипроптивный, познавательный признак, модель*

Nabiyeva Zarrina Isomiddinovna (Samarkand State Institute of Foreign languages. Teacher of the Chair of English philology)

ASPECTUAL AND CATEGORIAL FEATURES OF VERBS OF SOCIAL INTERACTION

Annotation. *This article analyzes the specific aspectual and categorial features of verbs that express social relations. The focus is placed on aspectual indicators that denote the continuity, initiation, or completion of an action, as well as on grammatical categories such as tense, mood, person, and number. Verbs related to social relations carry deep socio-psychological semantics and hold an important place in the morphological system of the Uzbek language. The article highlights the linguistic significance of these verbs through morphological and semantic analysis and presents conclusions based on practical examination.*

Key words: *aspectual, categorical, heterogeneous, polypropotic, cognitive trait, model.*

Kirish. Til – inson tafakkuri va ijtimoiy ongining mahsuli bo‘lib, u jamiyatdagi kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir tilning o‘ziga xos grammatik qurilishi, leksik boyligi va semantik tizimi mavjud bo‘lib, bu xususiyatlar tilning rivojlanishida, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ifoda topishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, fe’l kategoriyasi til tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki u harakat, holat, jarayon va munosabatlarni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi.

Tizimli-strukturali tilshunoslik nuqtayi nazaridan leksik ma’no odatda tushunchaning asosiy xususiyatlari yig‘indisi sifatida qaraladi, lekin konsept kengroq ma’no sifatida talqin qilinadi. Kognitiv semantika esa har qanday til birligining ma’nosi kognitiv strukturalar, ya’ni, ong, tafakkur va dunyoni bilish bilan bog‘liq tuzilmalar orqali aks etishini ta’kidlaydi.

Til birliklarining ma’nolari insonning bilish salohiyati bilan belgilangan bo‘lib, ular maxsus tayyor tuzilmalar emas, balki bilish jarayonida shakllanadigan strukturalardir.

Ushbu maqolada ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi fe’llarning aspektual (ya’ni harakatning davomiyligi, tamomlanganligi yoki boshlanganligi bilan bog‘liq xususiyatlari) va kategorial (ya’ni, grammatik kategoriya doirasidagi) belgilarini tahlil qilish maqsad qilingan. Ijtimoiy munosabat fe’llari – odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar, ruhiy kechinmalar, axloqiy munosabatlar va ijtimoiy rollarni ifodalovchi fe’llar bo‘lib, ularning morfologik va semantik xususiyatlari tilshunoslik nuqtai nazaridan alohida e’tiborga loyiqdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi zamon tilshunosligida fe’l kategoriyasi doirasida semantik va grammatik omillarni kompleks tahlil qilish orqali til birliklarining chuqurroq anglashiga erishilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi fe’llarning aspektual va kategorial xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy jihatlarini boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. S.D.Kanselson, hamma narsa hissiy jihatdan idrok etiladi deb yozadi. Muallif tildagi asosiy ma’nolarni predikatlar tashkil qilishini qayd etadi. Substantivlar uchun asosiylari jismoniy vujudga ega jismlarni aks ettiruvchi leksik birliklardir.

Atributiv so‘zlar uchun predmetlarning xususiyatlarini ifodalovchi leksik ma’nolar, predikativ so‘zlar uchun esa hissiy jihatdan kuzatiladigan tushunchalar, o‘zgaruvchan xususiyatlarning leksik ma’nolari harakat va holat predikatlari orqali ifodalanadi.[1]

Ijtimoiy munosabat fe’llarining tuzilishida biz inson va jamiyat munosabatlari idrok qilinishini kuzatamiz. Bundan kelib chiqadigan asosiy ma’nolarni muhim maqsadga yoki an’anaviy terminologiya bilan aytganda, belgi sifatida qaraymiz. Ijtimoiy munosabat fe’llarini tahlil qilishda gapning sintaktik tarkibi funksional vazifalarini tashkil etuvchi jihatlariga e’tibor qaratilgan. Ushbu guruh fe’llarini leksik-semantik (fe’l leksema sifatida), semantik-sintaktik (fe’l jumla tarkibidagi tarkibiy qism sifatida) va dinamik-funksional (fe’l harakat yoki holat vazifasini bajarishi) jihatlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat fe’llarining tabiati, ekstralingvistik voqelikning nutqda aks etishi esa subyekt va obyekt munosabatlariga asoslangan omillar orqali aniqlanadi.[2] Voqelikni ifoda etish uslubiga ko‘ra, fe’l harakat/holatga tegishli bo‘lgan, nutqning asosiy funksional vazifalarni bajaradi.

---

[1] Канцельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. Ин-т языкознания. Ленинград, “Наука” Ленингр. отд-ние, 1972, с. 175.

[2] Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Москва, “Добросвет”, 2000, с. 146.

Zamonaviy tilshunoslikda mavjud ilmiy asarlar bilan bir qatorda o‘quv adabiyotlarida ham aspektuallik nazariyasi tilning grammatik, leksik va sintaktik jihatlari bilan bog‘liq holda keng yoritilgan. Biroq fe’l sistemasi doirasida aspektual ma’nolarni konseptual nuqtayi nazardan o‘rganishga qaratilgan bir qator tilshunoslar ishlari mavjud. Masalan, R.Langakker (2010), E.Paducheva (1996), S.G.Tatevasov (2011) va G‘.Mirsanov (2018) kabi tadqiqotchilar aspektual ma’nolarning bevosita konseptual asosga ega ekanligini isbotlashga urinishdi.

Fe’lning semantik tarkibini aniqlaydigan kontekstual tartibga solingan paradigma vositalar aspektual ma’nolar o‘rtasidagi munosabatlarni, farqlarni aniqlash predikat ma’nolarini farqlash va, shuningdek, aspektni an’anaviy tahlil doirasidan kengroq bo‘lgan konsept nazariyasi bilan bog‘lash aspektual semantika tavsifini hal qilishga qaratilgan. Aspektuallikning kognitiv tadqiqotlari uni kognitiv grammatika doirasida o‘rganishda erishilgan muhim yutuqlarni inobatga oladi.[1]Shuning uchun aspektni semantik modellashtirish kognitiv modellashtirishdan oldingi bosqich bo‘lib, kognitiv va lingvistik hodisa sifatida aspekt ma’nolari haqida yangi ma’lumotlarning o‘zlashishiga sabab bo‘ldi.

Tadqiqot metododlogiyasi. Aspektuallikni o‘rganish tarixiga nazar tashlash zamonaviy semantika uchun muhim bo‘lgan bir qator nazariy masalalarni aniqlash imkonini berdi. Bizningcha, eng dolzarb masalalardan biri aspektual ma’nolarning muntazamligi, ya’ni, ma’lum bir turg‘un shakldagi ma’nosi, harakatning lisoniy shaxs ongida kechishi, tasavvuridagi modellarni aniqlash bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lgan ma’nolarning semantik o‘tishlari va umumiy ma’no muammosi bilan bog‘liq masalalardir.

Aspektuallikka kognitiv yondashuv fe’lga modifikatsiyalashadigan semantik bog‘lanishni, fe’l semantikasining konseptual voqelanishi bilan izohlaydi. Tadqiqotchilarning ishlarida tahlil qilingan materialga asoslanib, polisemantik so‘zning ma’nolarini birlashtirgan konseptual tuzilmalarni belgilash uchun turli atamalar ishlatiladi. Jumladan, prototip sxemasi (G.I.Kustova), tasvir-sxema (M.Jonson, J.Lakoff, L. Talmi), ssenariy prototipi (J.Lakoff, A.Vejbiskaya, D.Gerars, U.Labov, R.M.Frumkina, I.K.Arkhipov), kadr (C.Fillmore), konseptual sxema (Anna A.Zaliznyak) va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ingliz tili fe’llarining sintaktik munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar bunday ma’no komponentlarini aniqlash maqsadida olib borilgan. Shunday tadqiqotlar qatoriga Ramchand (1997), Guerssel (1986), Hale va Keyser (1986, 1987), Rappaport va B.Levin (1996) kabi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni kiritish mumkin[2]. Mazkur mualliflar ingliz tili predikatlari semantikasi subyekt va obyekt semantikasiga moslashishni qayd etishadi.

Bundan tashqari, yuqorida aytib o‘tilganidek, genetik bo‘lmagan tillar ustida chog‘ishtirma tarzda amalga oshirish leksik birlik o‘rganishda yordam berishi mumkin. Levin va Pinkerning fikricha, semantik va sintaktik korrelyatsiyalarni o‘rganish natijasida aniqlangan ma’no tarkibiy qismlarining ma’nosi fe’l ma’nosiga oid tadqiqotlarda ingliz fe’llarining ma’nolarida tilni o‘zlashtirish va bilish jarayonlari markaziy o‘rinda turgan elementlar majmuyi bilan sezilarli darajada mos kelishini ko‘rsatadi (Jackendoff (1983, 1990), G.A.Miller va Johnson-Laird (1976), Pinker (1989).[3]

Tahlil va natija. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy munosabat guruhi fe’llari sinfi geterogen tarkib bilan tavsiflanadi. Ba’zi fe’llar ijtimoiy o‘zaro ta’sirning umumiy turini nomlashga (himoya qilish, ta’minlash, bo‘ysundirish, boshqarish) xizmat qilsa, boshqalari ijtimoiy sohani aks ettiruvchi fe’l lug‘atining yadrosini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabat fe’llari sifatida tan olinadi. Masalan: *tobe qilmoq* –kimgadir yoki biror narsaga qaram qilmoq, bo‘ysundirmoq, biror narsaga muvofiq harakat qilishga majburlamoq (majbur qilmoq).[4]

Ushbu guruhga tegishli boshqa fe’llar ma’nosida ishtirokchilarni, vaziyatni ko‘rsatish uchun ishlatiladi hamda harakatni amalga oshirishning *“motor dasturi”*ni (E.S.Kubryakova atamasi) o‘z ichiga oladi. Masalan: *qo‘riqlamoq* (muxofaza qilmoq) – “ma’lum bir hududda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, militsiya yoki harbiy kuchlar tomonidan biror shaxsni, xususiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan biror obyektni tartib intizomni buzuvchilardan himoya qilish, va hokazo misol tariqasida keltirish mumkin.[5]

Bunday fe’llar polipropotiv fe’llar guruhiga kiradi, ya’ni, bir leksemada bir nechta vaziyatlarni ifodalashga qodir fe’llarni o‘z ichiga oladi. L.G.Babenko polipropitiv semantika fe’llarining sema tuzilishini o‘r-

[1] Langacker R.W. (keltirilgan adabiyot). 67-bet.
[2] Ramchand G. Aspect and Predication. The Semantics of Argument Structure. 1997, 250 p.
[3] Levin B., Pinker S. Lexical and conceptual semantics. Cambridge, Ma.: Blackwell, 1991, p. 67.
[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008, 127-бет.
[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд (келтирилган адабиёт). 413-бет.

ganar ekan, ularni ikki sinfga ajratadi: kiritilgan va qo‘shma taklifli fe’llar. L.G.Babenko shunday deb yozadi: “Kiritilgan fe’lning sema tuzilishi bir emas, kamida ikkita predikativ o‘ringa ega bo‘ladi: asosiy aniqlovchi predikatning kategorial-leksik sema holatidagi o‘rni va kiritilgan predikatning differensial semaning holatini belgilovchi o‘rni. Bundan tashqari, asosiy va kiritilgan predikatlar odatda maqsad, sabab, natija, ta’sir, harakat usuli kabi mantiqiy munosabatlar bilan bog‘lanadi”.[1] Misol tariqasida, *himoya qilish* fe’lining asosiy ma’nosiga qarasak, *himoya qilmoq* fe’li tajovuz, hujum, dushmanlik va tahdid kabi harakatlardan himoya qilishni anglatadi[2]. Bu fe’l birikmasi retrospektiv ravishda ishlatiladi: himoya doimo avvalgi hujum, dushman tahdidi yoki yovuz harakatlar natijasida paydo bo‘ladi. Ushbu retrospektiv orientatsiya esa uning poliprositiv xarakterini belgilab beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi fe’llar o‘zbek tilining grammatik va semantik tizimida alohida o‘rin tutadi. Ularning aspektual belgilari – harakatning davomiyligi, boshlanishi yoki yakunlanganligini ifodalovchi vositalar orqali, hamda kategorial belgilari – zamon, mayl, shaxs va son kabi grammatik kategoriyalar doirasida ifodalanishi tildagi ma’no aniqligi va nutqdagi aniqlikni ta’minlaydi. Mazkur fe’llarning chuqur semantik qatlamlari ijtimoiy-psixologik mazmunni ochib berishga xizmat qiladi.

Maqolada olib borilgan morfologik va semantik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy munosabat fe’llarining o‘rganilishi nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy tahlil va o‘qitish jarayonlari uchun ham dolzarbdir. Kelgusida bu turdagi fe’llarni korpus lingvistikasi, diskurs tahlili hamda pragmatik yondashuvlar asosida chuqurroq o‘rganish tilshunoslik sohasida yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Kabilova Zebiniso Murodovna (Andijon davlat Chet tillari insituti dotsenti, f.f.n.)

MATNNING FONOSEMANTIK TADQIQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Undov va taqlid so‘zlardagi tovushlarning ohangdorligi ma’lum mazmun va maqsadga ega. Til uchun bunday holatlar tasodifiy hodisa emas. Undov va taqlid so‘zlarning aytilishi orqali ulardagi mazmun va maqsadni qiyinchiliksiz anglab olamiz. Demak, so‘z tarkibidagi tovushlarda ham qandaydir ma’no va maqsad yotadi. Albatta, tovushlarning ma’nodorlik xususiyatlarini kengroq yoritish, tadqiq etish ham murakkab, ham qiziqarlidir.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy tadqiqodlar, fon, fonosemantik vositalar, ohangdorlik, undov va taqlid so‘zlar.*

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ФОНОСЕМАНТИЧЕСКОМ ИССЛЕДОВАНИИ ТЕКСТА

Аннотация. *Мелодичность звуков в восклицательных и подражательных словах имеет определенное значение и назначение. Подобные ситуации не являются случайным явлением для языка. По произношению восклицаний и подражательных слов мы легко можем понять их значение и цель. Итак, звуки в слове также имеют какое-то значение и цель. Конечно, более детальное изучение и исследование значимых свойств звуков – дело и сложное, и интересное.*

Ключевые слова: *современные исследования, фонология, фоносемантические средства, мелодичность, восклицательные и подражательные слова.*

SOME CONSIDERATIONS ON THE PHONO-SEMANIC RESEARCH OF THE TEXT

Annotation. *The melodiousness of sounds in exclamatory and imitative words has a certain meaning and purpose. Such cases are not a random phenomenon for the language. We can easily understand the meaning and purpose of exclamatory and imitative words by pronouncing them. Therefore, the sounds in the word also have some meaning and purpose. Of course, a broader coverage and study of the meaningful properties of sounds is both complex and interesting.*

Keywords: *Modern studies, background, phono-semantic means, melodiousness, exclamatory and imitative words.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida fonetik-stilistik vositalar, ularning hosil bo‘lish omillari, qo‘llanishi, ahamiyati kabi masalalar uslubiy jihatdan to‘la tadqiq etilmagan. Hozirgi zamon tilshunosligining yutuqlari fonostilistika sohasidagi ishlarni fonosemantika bilan bog‘lab kengroq o‘rganishni taqozo etadi. Biz borliqda mavjud bo‘lgan predmetlar nomlariga gohida e’tibor berib o‘ylab qolamiz, gohida esa aksincha. Agar

[1] Бабенко Л.Г. Глагол в системе языка и речевой деятельности: материалы научной лингвистической конференции. Ральский гос. унив., 1990, с. 157.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд (келтирилган адабиёт). 531-бет.